

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

10
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotdoy Avezimbetovich

Elektron nashr. 802 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., TDU rektori

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotdoy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dotsent

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna SamDu IS instituti professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Nomozova Qumri isoyevna Geologiya fanlari universiteti "Iqtisodiy geologiya" kafedrasini dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi PKQTUMOTMXHB mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Qishloq xo'jaligida innovatsion xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari..... | 8 |
| Sharipov Kongratbay Avezimbetovich , professor, Zaynutdinova Umida Djalalovna , dotsent | |
| O'zbekiston-Turkiya do'stligi azaliy qadryatlarimiz zaminida yashab kelmoqda..... | 13 |
| O'sman Mesten , Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya-O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari | |
| O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishini davlat tomonidan | |
| qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish..... | 15 |
| Akkulov Abdulaziz Uralboyevich , mustaqil tadqiqotchi | |
| O'zbekiston Respublikasini "Yashil" iqtisodiyotga o'tish istiqbollari. Muammolar va yechimlar..... | 19 |
| Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li , doktorant | |
| Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "Yashil" iqtisodiyotning o'rni..... | 26 |
| Sevara Yaxshimuratova Rustam qizi , assistent-o'qituvchi | |
| Sanoat barqarorligini ta'minlashda yashil energetikaning o'ziga xos xususiyatlari..... | 29 |
| Kadirov Abdumalik Matkarimovich | |
| Republikamizda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishda agroxizmatlarni | |
| rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari..... | 36 |
| Mirzayev Q. J. , i.f.d., professor; Jonuzokov M. K. , assistent o'qituvchi | |
| "Yashil" obligatsiyalarni muomalaga chiqarishning nazariy va amaliy jihatlari..... | 40 |
| E. I. Nosirov , i.f.n., dotsent | |
| Turizm sohasidagi loyihalarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish..... | 46 |
| Matkabulova Dilorom Xalilullayevna , PhD | |
| Koreya Respublikasida yashil (eko) turizmning rivojlanish yo'nalishlari va muammolari..... | 51 |
| Islomova Dilrabo Salomovna , kafedra assistenti | |
| Moliyaviy menejment tizimini transformatsiyalashda raqamli marketing | |
| samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari..... | 55 |
| Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich , PhD, dotsent | |
| Samarqand viloyati ekologik turizm salohiyatidan samarali | |
| foydalanish asosida ekoturizm klasterlarini shakllantirish..... | 62 |
| Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi , i.f.b.f.d.; Axrorov Farxod Baxriddinovich , i. f. n.; Xo'jamov Bobur , tadqiqotchi | |
| Ichki turizmni rivojlantirishda davlatning o'rni..... | 68 |
| Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant | |
| O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanishiga global trendlarning ta'siri..... | 72 |
| Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich , i.f.d., professor | |
| Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending | |
| to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan..... | 79 |
| Karimova Aziza Maxomadrizoyevna , PhD, docent; Maqsudov Orif Shakirovich , assistant | |
| Islomiy moliya instrumentlari (muzoraba va mushoraka) va ularni tijorat banklarida qo'llash..... | 84 |
| Madraximova Gulasal , dotsent; Safarova Nasiba , magistrant | |
| Mamlakatimizda "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari..... | 90 |
| Mustafaqulov Yangiboy Bo'riqulovich , Todjimamatova Mashhura Erkinovna ; | |
| Nurmatova Hilola A'zamovna ; Berdieva Aziza G'anisher qizi ; Egamberdieva Oydin Abror qizi | |
| Ways to Improve the Green Recovery in Uzbekistan by Investment and Trade..... | 97 |
| Nurbek Khalimjonov , assistant | |
| Evaluating the Path Towards Sustainable Tourism Development in the Republic of Uzbekistan..... | 102 |
| Khusniddin Egamnazarov | |
| Nexus Between Climate Change and Energy Consumption in Uzbekistan: A Time Series Analysis..... | 106 |
| Sarvar Mamasoliyev ; Shodiyor Toxirov | |
| O'zbekistonda mice turizmini barqaror rivojlanishida qulay infratuzilma..... | 112 |
| Xalimova F. N. , katta o'qituvchi | |
| Ichki turizmni rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribasi va uni | |
| O'zbekistonda qo'llashning iqtisodiy afzalliklari..... | 115 |
| Matkarimov Jahongir Shamuratovich , mustaqil tadqiqotchi | |
| Agroturizmni rivojlantirish orqali hududlarning barqaror rivojlantirish imkoniyatlari..... | 122 |
| Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna , kafedra dotsenti | |
| Turizm sektorida milliy hunarmandchilik mahsulotlarining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari..... | 126 |
| Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna , kafedra assistenti | |
| Роль религиозного туризма в экономике Узбекистана..... | 132 |
| Рахимова Дилфуза Мирзакасимовна , преподаватель | |
| Turistik sanoatining investitsion jozibadorligini boshqarish va samaradorligini baholash..... | 139 |
| Sa'dullayeva Gulnoza Sodiq qizi , PhD | |



| | |
|--|-----|
| Turizmga innovatsiyon texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari | 144 |
| Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , doktorant | |
| O'zbekistonning "yashil iqtisodiy strategiyasi" va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari | 147 |
| Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich , dotsent | |
| An Analysis of the Structure of Trade Between China and Uzbekistan | 150 |
| Cao Gang , PhD Candidate | |
| "Daka-Tex" MCHJ XKning marketing faolyatining takomillashtirish..... | 160 |
| Musyeva Shoirazimovna , kafedra professori | |
| Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat xavfsizligining o'rni | 164 |
| Ibragimov G'ayrat Ablagulovich , PhD; Shukurova Nilufar Qahramonova , tadqiqotchi; | |
| Umirov Islombek Furkatovich , tadqiqotchi; Tojiqulov Samandar Orufjon o'g'li , tadqiqotchi | |
| MDH davlatlarida chorva va parandachilik o'sish dinamikasi | 169 |
| Abidov Abdujabbor Abduxamidovich , t. f.n., dotsent | |
| Tijorat banklarida foiz stavkaning likvidlikka ta'siri | 179 |
| Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich , iqtisodiyot fanlari doktori, professor | |
| O'zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvining dolzarb masalalari | 186 |
| Burxanov Aktram Usmanovich , i.f.d., prof.; Xudoyqulov Xurshid Xurramovich , i.f.d., prof. | |
| O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishiga oid | 191 |
| Ruzibayev Jahongir Nodirovich | |
| O'zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori hozirgi holati tahlili..... | 194 |
| Ro'ziqulov Abdimo'min Qussam o'g'li , mustaqil izlanuvchi | |
| Raqamli texnologiyalar orqali turizm industriyasini rivojlantirish usullari | 200 |
| R. P. Zarikeyev , mustaqil doktorant | |
| Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda inson resurslaridan foydalanish amaliyoti | 206 |
| Abdualimov Ashraf Qurbonaliyevich , doktorant | |
| Oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt shakli mablag'lari bo'yicha xarajatlar | |
| va ular hisobining amaldagi holati | 211 |
| Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna , doktorant | |
| O'zbekistonda oziq-ovqat bozori nazariy tahlili..... | 216 |
| Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi , doktorant | |
| Sug'urta munosabatlarini takomillashtirishning istiqbollari | 221 |
| Abdutarapova Dildora Farxodjon qizi , doktorant | |
| Functions of Management in Education and Its Significance | 231 |
| Akhatova Shakhnoza Akram kizi , teacher | |
| Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishni yangicha | |
| usullarini o'rganishning ayrim dolzarb masalalari | 235 |
| Ametov Quvondik Mamatjanovich , mustaqil izlanuvchi | |
| Yog'-moy sanoati korxonalari kapitali rentabelligini oshirish yo'nalishlari..... | 238 |
| Amirzoda Hamrayev , katta o'qituvchi | |
| Banklararo to'lov tizimini raqamli iqtisodiyotdagi rolini oshirish choralari | 244 |
| Amonov Alisher , o'qituvchi | |
| Baholash faoliyatini raqamlashtirish istiqbollari..... | 248 |
| Bobirjon Aktamov , katta o'qituvchi | |
| Marketing xizmati samaradorligini baholashda PEST tahlil usulining ahamiyati va qo'llash imkoniyatlari | 253 |
| Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li , katta o'qituvchi | |
| Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining vujudga kelish zarurati, umumiy hisobotlarining tuzilishi | |
| va O'zbekistonning MHXSga o'tishida vujudga keladigan muammolar va ularni bartaraf etishning istiqbolli | |
| yo'nalishlari | 259 |
| Djurayeva Iroda Bahrom qizi , doktorant, o'qituvchi | |
| Samaradorlikni korxona iqtisodiyotida tutgan o'rni | 265 |
| Fayziyeva Nilufar Shuxrat qizi , PhD, katta o'qituvchi | |
| Avtomobil transporti korxonalarida amortizatsiya xarajatlari va uning hisobini takomillashtirish masalalari... | 269 |
| G'anibayev Ilxomjon Shokiraliyevich , doktorant | |
| Turistlar statistik hisobini olib borish bo'yicha xalqaro standartlar va tajribalar tahlili | 275 |
| Jumanova Zilola To'ychiyevna , doktorant | |
| Tijorat banklari ipotekali kreditlarining qaytuvchanlik holatini barqarorlashtirish choralari | 280 |
| Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li , kafedra o'qituvchisi | |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni | |
| amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish..... | 284 |
| M. Samiyeva , kafedra assisenti | |
| Assessment of the Economic Effectiveness of the Railway Transport System | 288 |
| Mannonov Shahruhmirza Abdurashidovich , independent researcher | |
| O'zbekistonda mikromoliya tashkilotlarining iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari..... | 294 |
| Nazarova Muslima Nazarovna , PhD, i.f.f.d., katta o'qituvchi | |



| | |
|---|-----|
| Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari..... | 301 |
| Odilov Dilshodjon Tulqinovich | |
| O'zbekistonda paxtachilik majmuasining iqtisodiy samaradorligini oshirish | 307 |
| Xoliqov Tolibjon Luptullaevich , kafedra assistenti | |
| Ta'lim tizimi boshqaruvida "time menejmenti" texnologiyalarini qo'llash..... | 311 |
| Radjabova Gavxar Umarovna , kafedra dotsenti | |
| Improving Trade Effectiveness Through Merchandising: Theory and Practice | 316 |
| Ravshan Aliyevich Allayorov , Associate Professor | |
| An'anaviy moliya tizimidagi yangi yondashuv va yechimlar | 319 |
| Abrorov Sirojiddin , PhD; Bunyod Usmonov , PhD | |
| Ijtimoiy fondlar va maqsadli jamg'armalar faoliyatini takomillashtirish | 325 |
| Samiyeva Gulnoza Toxirovna , PhD, i.f.f.d. | |
| Tikuv-trikotaj korxonalarining brend jozibadorligini marketing strategiyalari asosida oshirish..... | 332 |
| Sh. Sh. Ziyayeva , katta o'qituvchi | |
| Surxondaryo mintaqasining ekoturizm salohiyati nuqtayi nazaridan baholash | 337 |
| Soatov Yusuf Xo'jayor o'g'li , mustaqil tadqiqotchi | |
| Совершенствование учета неиспользованных основных средств в Республике Узбекистан..... | 340 |
| Усманов Фаррух Обитхонович , научный сотрудник кафедры | |
| An'anaviy moliya tizimining metodologik muammolari, shuningdek moliya tizimida yuz beruvchi inqirozlar va ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari | 348 |
| Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich , stajor tadqiqotchi; Sindarov Fazliddin Kaxramonovich , kafedra assistenti | |
| Dehqon xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishda tomorqa xizmati klasterlarini takomillashtirish | 355 |
| Xamrayeva Sayyora Nasimovna , kafedra professori; Ochilova Nargiza Akramovna , doktorant | |
| Transport xizmatlari bozorida marketing faoliyatini mexanizmlarini rivojlanishining asosiy tamoyillari | 360 |
| Nosirov Javlonbek Jamoliddin o'g'li , doktorant; Raxmatov Ziyodullo Nosirovich , dotsent | |
| BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida kambag'allikni qisqartirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalari..... | 363 |
| Yusupov M. S. , PhD | |
| Мировые финансовые центры точки роста экономики | 369 |
| Абдуллаев Анвар Фархадович , PhD., доцент кафедры | |
| XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy ijtimoiy qarashlaridagi umumiylik va xususiylik | 375 |
| Abrorxon Asatulloev Asatulloevich , PhD | |
| Математическое обоснование вычисления моды и медианы в статистике..... | 379 |
| Бердикулова Ирода Райимкуловна , старший преподаватель; Усманов Шахзод Шохрухович , студент | |
| Yirik soliq to'lovchi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishda soliq ma'murchiligining istiqbollari..... | 390 |
| G'aniyev Shaxriddin Vohidovich , i. f. d., Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich , PhD | |
| Sog'lomlashtirish turizmi klasterlari faoliyatida innovatsion faoliyatni boshqarishning kross-innovatsiyalar asosidagi modeli | 395 |
| G'ofurov Azizbek Umarjonovich , mustaqil tadqiqotchi | |
| Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish yullari..... | 400 |
| J. Y. Isakov , i.f.d, professor | |
| Mehnat bozorining raqamlashgan iqtisodiyotdagi statistik masalalari..... | 405 |
| A. Abduvohidov , i. f.d., professor | |
| Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritish..... | 407 |
| Karayev Payzillaxon Yusufxonovich , PhD | |
| Актуальная ситуация в сегменте теневой экономики в Республике Узбекистан..... | 412 |
| Кошанов Абдимурат , независимый исследователь | |
| O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari | 416 |
| Qurbonova Shaxrinoz , doktorant | |
| Erkin iktisodiy hududlarda investitsion faollikni oshirish masalalari..... | 420 |
| Qilicheva Kamola Muzaffarovna , mustaqil tadqiqotchi | |
| Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)..... | 425 |
| Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich , erkin izlanuvchi | |
| Sug'urtada assistans xizmatlarini takomillashtirish | 433 |
| Maxmudov A. M. | |
| Цифровизация бухгалтерского учета..... | 439 |
| Мирсодикова Дилобар Дилшод кизи , самостоятельный соискатель | |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish..... | 445 |
| Nasurova Kamola Ravshanovna , PhD | |
| Повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках..... | 451 |
| Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент; Нуриллаев Шердил Жамолiddin угли , магистр | |



| | |
|---|-----|
| Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari..... | 456 |
| Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li | |
| Uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish | 460 |
| Berdiyeva Dilfuza Axatovna , PhD, dotsent | |
| Экономика знаний как высший ступень развития инновационной экономики | 466 |
| Хасанхонова Нодира Исаметдиновна , PhD | |
| Kichik biznes subyektlarini samarali investitsiyalashning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi..... | 471 |
| Ruziyeva Dilobar Isomjonovna , iqtisod fanlari nomzodi | |
| Davlat-xususiy loyihalarining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy asoslari | 481 |
| Suleymanov Farrux Raximjonovich , mustaqil izlanuvchi | |
| Комплексный анализ хозяйственно-экономической деятельности и устойчивости АО "Узавтосаноат" | 487 |
| Туйчиев Комилжон Лазизович , доцент кафедры | |
| Экономическая сущность и важность повышения эффективности | |
| производства каракулеводческой продукции..... | 493 |
| Тулкин Хайтмуродович Фармонов , профессор; Нуриллаев Жамолiddин Ярашевич , докторант | |
| O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari | 499 |
| O'ktamova Nozima Narzulla qizi , PhD, kafedra dotsenti | |
| Инновационные методы энергосбережения как способ повышения | |
| конкурентоспособности предприятия | 503 |
| Хамдамова Гавхар Абсаматовна , к.э.н., профессор | |
| Hudud sug'oriladigan yerlarida suv resurslaridan foydalanish holati tahlili | 508 |
| Shoxujayeva Zebo Safoyevna , i. f.n., professor, katta ilmiy xodim | |
| Hududlarning moliyaviy-investitsion salohiyatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini | 513 |
| Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi , kafedra dotsenti i.f.d. | |
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xodimlar faoliyatining axborot tizimlarini samarali tashkil qilish..... | 521 |
| Yuldashev Furqat Nurilloevich , doktorant | |
| O'zbekistonda raqamli iqtisodiyoti sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo'llari | 524 |
| Boboqulov Sanjar Baxronkulovich , PhD; Akramov G'ayrat Otabek o'g'li , talaba | |
| An Analysis of Green Taxation and Its Effect on Economic Growth | 530 |
| Fayzieva Nargiza Rabimovna , PhD | |
| Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlarini | 537 |
| Qurbonov Jasurbek Pozilovich , kafedra dotsenti | |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasining rivojlanishi va istiqboli | 540 |
| Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich , PhD, kafedra dotsenti | |
| O'zbekistonda energetika korxonalari faoliyatida korporativ | |
| boshqaruvining baholash usullarini tahlili..... | 544 |
| Abduraxmonova Zarina Muysinjonovna , mustaqil tadqiqotchi | |
| Markaziy Osiyo davlatlarida rekreatsiya turizmi | 548 |
| Shaymanova Nigora Yusupovna , doktorant | |
| Korxona investitsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar va qarashlar evolyutsiyasi..... | 552 |
| Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li , doktorant | |
| O'zbekiston sanoatining rivojlanish tendensiyalari, muammo va yechimlari..... | 559 |
| Shavqiyev Erkin , i. f. n. | |
| "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati, dastaklari va uning o'ziga xos tamoyillari | 565 |
| Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich , kafedra dotsenti | |
| Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlari | 571 |
| Ashurov Maxammadjon Sotvoldiyevich , i.f.n., kafedra dotsenti | |
| Ijtimoiy tarmoqlar analitikasi..... | 576 |
| S. Qulmatova , PhD, dotsent | |
| Analysing the Functioning of Enterprise Management in the Context of Institutional Reforms | 581 |
| Kurpayanidi Konstantin Ivanovich , Professor | |
| Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini baholash | 586 |
| Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchi | |
| Soliq tushumlarini prognozlashtirish modellarini qurishning klassik va intellektual usullari | 593 |
| Narmanov Ulug'bek Abdugapparovich , PhD; Maqsudov Azamat Maqsud o'g'li | |
| Kompaniyani samarali boshqarishda marketingning o'rni va uning tamoyillarini qo'llash istiqbollari..... | 598 |
| Usmonova Dilfuza Ilhomovna , kafedra dotsenti | |
| Экономическая безопасность и факторы влияющие на неё..... | 602 |
| Абдишукуров Шерзод Шавкат угли , научный сотрудник | |
| Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy manbalari bo'yicha xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish..... | 608 |
| Artikov Kurbonazar Amonovich , mustaqil ilmiy tadqiqotchi | |
| Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning ahamiyati..... | 614 |
| Asamxodjaeva Shoirra Shukurullaevna , katta o'qituvchi | |



| | |
|--|-----|
| Перспективы развития инноваций и роль стартапов: зарубежный опыт, проблемы и решения..... | 618 |
| Ачилова Ширин Шавкат кизи , старший преподаватель | |
| Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashda garov ta'minotini takomillashtirish | 622 |
| Bazarova Nigora Ravshanovna , kafedra dotsenti | |
| Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini boshqarish masalalari | 627 |
| Kenjayev Ilhom G'iyozovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) | |
| Organizational Factors Influencing Leadership Styles and Procurement Outcomes | 632 |
| Saidakhmedov Islomjon Uligbekovich , Scientific researcher | |
| Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari | 637 |
| Mirpulatova Luiza Mansurovna , doktorant | |
| Tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash metodologiyasining ekonometrik tahlillari..... | 642 |
| Norov Akmal Ruzimamatovich , DSc, kafedra professori | |
| Tijorat banklarida kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'llari | 649 |
| Norova Nozima Nabiyeвна , katta o'qituvchi | |
| Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari | 657 |
| Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li | |
| Jahondagi kuzatilayotgan globallashuv va tabiatdagi o'zgarishlar oqibatida kelib chiqayotgan turli xatarlardan himoya qilishda sug'urta tashkilotlari oldida turgan vazifalar ("O'zbekinvest" EISK AJ misolida)..... | 661 |
| Sayfullo Mirzoyev | |
| International Experiences on Restoration of Financial Stability Through Indicators in Commercial Banking Sector | 666 |
| Solijonova Muxlisa Azamatovna | |
| Pensiya yoshining pensiya ta'minoti tizimiga ta'siri..... | 668 |
| Tursunov Jaxongir Pulatovich , DSc | |
| Mamlakat iqtisodiyotini islom moliya instrumentlari orqali rivojlantirish istiqbollari..... | 673 |
| Xalikov Ulug'bek Rustamovich , PhD | |
| Sug'urta kompaniyalari va tijorat banklari integratsiyalashuv jarayonini zarurligi va ahamiyati..... | 678 |
| Xudoyberdiyeva Sadoqat Abdumannonova , mustaqil izlanuvchisi | |
| Qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning innovatsion menejment tamoyillari... 683 | |
| Shaniyazova Zamira Oralbayevna , PhD | |
| Тенденции развития жилищного строительства..... | 688 |
| Алиева Зилола Маматвалиевна , доцент кафедры | |
| Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning innovatsion usullari..... | 692 |
| Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b. | |
| Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'larining shakllanishi va nazorat qilinishi..... | 698 |
| Xusanov Nishonboy Abdusattarovich , filologiya fanlari doktori, professor | |
| Спиртные напитки - вред здоровью | 702 |
| Кариева Халима Икромжоновна , старший преподаватель кафедры | |
| Importance of Social Infrastructure Development in Rural Areas | 706 |
| Munisa Alimova | |
| Davlat xizmatida agile loyiha boshqaruvi texnologiyasidan foydalanish | 709 |
| Isaqova Zebo Murodovna , f.f.n. (PhD), tadqiqotchi | |
| Korxonalar moliyaviy tahlilining ahamiyati | 714 |
| Karimov Eminjon Gapardjonovich , doktorant | |
| Рекреация как основа духовно-культурного возрождения нации и социально-экономического развития страны | 716 |
| Алимова Гузал Алишеровна , Доктор философии (PhD) по экономическим наукам | |
| Развитие тепличного плодоовощеводства и создание в отрасли цепочки добавленной стоимости Республики Узбекистан..... | 722 |
| Дурманов Акмал Шаймарданович , PhD, доцент кафедры | |
| Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning innovatsion usullari..... | 734 |
| Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li , DSc, mustaqil izlanuvchi | |
| Роль виртуальных банков в развитии экономики Узбекистане..... | 738 |
| Каримов Нарбой Ганиевич , доктор экономических наук; Ниязметов Мансур Рустамович | |
| Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish imkoniyatlari | 742 |
| Xayitov Abdimannon Buxarovich , iqtisod fanlari nomzodi | |
| Maxsus iqtisodiy zonalar: mazmun-mohiyati, ulardagi investitsiya muhitini yaxshilash | 748 |
| Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li , PhD, dotsent | |
| Современные тенденции формирования системы критериев рабочих мест в условиях экологизации экономики | 754 |
| Ходжаева Нодирахон Абдурашидовна , PhD, профессор | |
| Yangi O'zbekistonda xizmatlar sohasi – mamlakat taraqqiyotining drayveri | 760 |
| Yusupov Muxamadamin , kafedra dotsenti | |



| | |
|---|-----|
| Oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning zarurati..... | 767 |
| Anvar Bazarbayevich Gafurov , PhD (i.f.f.d) | |
| Kichik sanoat zonalaridagi korxonalar raqobatbardoshligini oshirish..... | 774 |
| Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , kafedra dotsenti v.b. | |
| Pensiya yoshining pensiya ta'minoti tizimiga ta'siri..... | 778 |
| Tursunov Jaxongir Pulatovich , DSc | |
| Tibbiy sug'urtada innovatsiyalar va IT-texnologiyalarning qo'llanilishi..... | 784 |
| Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna , PhD, kafedra dotsenti | |
| Improvement of Scientific Methodological Bases of Innovative Management of Higher Education Institutions..... | 789 |
| Gafurova Dilshoda , PhD | |
| Leveraging Public-Private Partnerships for Strategic Investment Financing..... | 793 |
| Yakubova Samira , PhD | |
| Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida banklarning o'rni..... | 797 |
| Adilova Zohida Ikromjonovna | |



KICHIK SANOAT ZONALARIDAGI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich
TMI "Menejment va marketing" kafedrası dotsenti v.b.

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda kichik sanoat zonalari (KSZ) va ulardagi korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muhim hisoblanadi. Maqolada kichik sanoat zonalaridagi korxonalar va ular raqobatbardoshligini oshirish yoritilgan. Shuningdek, korxonaning raqobatbardoshligini baholash, raqobat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kichik sanoat zonalari, raqobatbardoshlik, raqobatchilar, raqobat tahlili, iqtisodiy samara, investitsion samara, raqobat muhiti.

Abstract: Currently, it is important to increase the competitiveness of small industrial zones (SIZ) and enterprises in them. The article describes enterprises in small industrial zones and their competitiveness improvement. Also, the evaluation of the enterprise's competitiveness, the development and implementation of the competition strategy were studied.

Key words: small industrial zones, competitiveness, competitors, competition analysis, economic efficiency, investment efficiency, competitive environment.

Аннотация: В настоящее время важно повысить конкурентоспособность малых промышленных зон (МПЗ) и предприятий в них. В статье описаны предприятия малых промышленных зон и повышение их конкурентоспособности. Также изучалась оценка конкурентоспособности предприятия, разработка и реализация конкурентной стратегии.

Ключевые слова: малые промышленные зоны, конкурентоспособность, конкуренты, анализ конкуренции, экономическая эффективность, эффективность инвестиций, конкурентная среда.

KIRISH

Korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish masalasi ko'p yillar davomida tadqiqotchilarni qiziqtirib kelmoqda. Bu masala bo'yicha ham xorijiy, ham mahalliy iqtisodchilar tomonidan ko'plab nazariy va empirik tadqiqotlar olib borilgan. Bir tomondan korxonaning raqobatbardoshligini boshqarish mavzusining keng miqyosda ishlab chiqilishi ushbu muammoning iqtisodiy faoliyat amaliyoti uchun dolzarbligini ko'rsatsa, boshqa tomondan, aksariyat tadqiqotlarda mualliflar korxonalar raqobatbardoshligining asosiy omillari, raqobatbardoshlik darajasini monitoring qilish va uni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishning texnik jihatlariga kamroq e'tibor berib strategik tahlil va kompaniyalar raqobatbardoshligining fundamental omillarini aniqlashga e'tibor berishmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning yo'nalishlariga oid olimlar fikrini o'rgangan holda, kuzatish, iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyektning raqobatbardoshligini oshirish nafaqat alohida korxonalar uchun, balki tegishli tarmoq va hududlar uchun ham ahamiyatlidir. Hududlar iqtisodiyoti alohida korxonalarning iqtisodiy faoliyati natijasida shakllanganligi sababli, korxonalarning yuqori raqobatbardosh maqomini ta'minlamasdan turib, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish mumkin emas.


Menejmentning umumiy nazariyasidan ma'lumki, boshqaruv jarayonining asosiy bosqichlari: dastlabki ma'lumotlarni yig'ish, uni tahlil qilish va maqsadni belgilash; qaror qabul qilish, qarorni amalga oshirish bo'yicha



tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etish; ishlash natijalarini monitoring qilish va nazorat qilish. Shu nuqtayi nazardan, korxonaning raqobatbardoshligini boshqarish quyidagi harakatlar majmuasini amalga oshirishga qaratiladi:

- 1) xo'jalik yurituvchi subyektning tarmog'i va raqobatchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash;
- 2) olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish, korxonaning raqobatbardoshligini baholash, yaxshilash bo'yicha strategik maqsadlarni belgilash;
- 3) raqobatbardoshlikning maqsadli darajasiga erishishga qaratilgan raqobat strategiyasini ishlab chiqish;
- 4) taktik boshqaruv qarorlarini rejalashtirish va ishlab chiqish jarayonida qabul qilingan strategiyaning izchil aniqlanishi;
- 5) qabul qilingan raqobat strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish;
- 6) strategiyani amalga oshirishning asosiy bosqichlarini nazorat qilish, erishilgan natijalarni monitoring qilish jarayonida korxonaning raqobatbardoshligini baholash, shuningdek tuzatish choralarini kiritish (zarur bo'lganda).

Mazkur keltirilgan algoritm bo'yicha barcha harakatlar shartli ravishda uchta katta blokka bo'linishi mumkin: raqobat tahlili; korxonaning raqobatbardoshligini baholash; raqobat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish (1-rasm).



1-rasm: KSZ ishtirokchilari bo'lmish korxonalar faoliyatida raqobatbardoshlikni ta'minlashning boshqaruv sikli

Yuqorida ta'kidlangan triadaga asoslangan KSZ ishtirokchilari bo'lmish korxona faoliyatida raqobat tahlilining asosiy maqsadi strategik menejment sohasida raqobatbardoshlikni baholash va qarorlar qabul qilish uchun axborot asosini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish korxonaning raqobat muhitini monitoring qilish va uning dinamikasini bashorat qilish imkonini beruvchi ko'rsatkichlar tizimini qo'rish orqali ta'minlanadi ^[4].

Sohadagi raqobatchilar va raqobat sharoitlarini o'rganish har qanday kompaniyaning raqobatchilarga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, o'z raqobat strategiyasini ishlab chiqish yoki erishilgan raqobatdosh ustunlikni saqlab qolish uchun talab qilinadi. Xo'jalik yurituvchi subyektning raqobat muhiti va uning faoliyati shartlarini tahlil qilish uning raqobatbardoshlik darajasini eng ko'p belgilovchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, aniqlangan omillarga maqsadli ta'sir ko'rsatish orqali korxonaning raqobatbardoshlik mavqelari optimallashtiriladi. Korxonaning raqobat muhitini tahlil qilish tartibini qisqacha ko'rib chiqamiz (strategik menejment klassiklarining tavsiyalariga muvofiq ^[5]).

KSZ ishtirokchilari bo'lmish korxona faoliyatida raqobat tahlilini o'tkazishda, birinchi navbatda, o'rganilayotgan obyektning qisqacha tavsifini, shu jumladan tahlil qilinayotgan korxona tarmog'ining tavsifini, asosiy iste'molchilarni, kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlarini, bozor sharoitlarini va boshqalarni shakllantirish kerak. Keyingi, sohadagi vaziyat tahlili olib boriladi. Tarmoqlar o'zining tuzilishi va asosiy xususiyatlariga ko'ra bir-biridan bir-biridan keskin farq qilganligi sababli, tarmoqdagi vaziyat va undagi raqobatni tahlil qilish asosiy tarmoq xususiyatlarini ko'rib chiqishdan boshlanadi.

Shu bilan birga, raqobatning tabiati va shiddatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Tarmoqdagi vaziyat va undagi raqobatni tahlil qilishda quyidagi savollarga javob berish kerak:

- tarmoq bozorining hajmi;
- bozor o'sish sur'ati va u joylashgan bosqich;
- raqobatchilar soni va ularning nisbiy kattaligi;
- tarmoqdagi asosiy kompaniyalarning rentabellik darajasi;
- tarmoqning asosiy ishtirokchilari o'rtasidagi raqobatning intensivligi;
- raqobatning asosiy usullari;
- tarmoqda asosiy mol yetkazib beruvchilar kimlar ekanligi;
- texnologik o'zgarishlarning yo'nalishlari va sur'atlari;
- tarmoqqa kirish va undan chiqish qulayligi;



- tarmoq raqobatida muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikni belgilovchi asosiy omillar nimaligi;
- tarmoq istiqbollari va uning umumiy jozibadorligi.

Bunda tarmoqning iqtisodiy xususiyatlarining raqobat xarakteriga ta'sirini ham hisobga olish zarur ^[6]. Raqobat tahlili natijasida kompaniya rahbariyati oldida korxona tashqi muhitining aniq va obyektiv holati haqida tasavvur paydo bo'lishi kerak. Shuni ham yodda tutish kerakki, bunday tahlil shunchaki ma'lumotlarni kiritadigan va tayyor javoblarni oladigan sof mexanik mashq emas. Xuddi shu dastlabki ma'lumotlar uchun tarmoqning dinamikasi uchun bir nechta ehtimollik ssenariylari bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan, strategik tahlilni o'tkazishda har doim ma'lum omillarning ta'siri, sanoat va raqobat muhitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar haqida turli xil fikrlar mavjud.

Yuqorida ta'kidlanganidek, raqobat tahlilining asosiy natijalaridan biri korxonaning raqobat muhitini monitoring qilish va uning dinamikasini bashorat qilish imkonini beruvchi ko'rsatkichlar tizimini qurishdir. Uslubiy nuqtayi nazardan, bunday tizimni qurish R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi tamoyillari asosida amalga oshirilishi mumkin ^[7]. Balanslangan ko'rsatkichlar tizimi (BKT) boshqaruvni universal mexanizm bilan ta'minlaydi, bu esa baholash mezonlari tizimidan foydalangan holda kompaniya faoliyatini doimiy ravishda kuzatib borish imkonini beradi.

BKTning klassik tuzilmasida ko'rsatkichlar to'rtta yo'nalishda shakllantiriladi: moliya, mijozlar, ichki biznes jarayoni, o'qitish va malaka oshirish. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, BKTni shakllantirishga klassik yondashuvda u asosan endogen ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Shu bilan bir vaqtda, raqobat tahlili uchun birinchi navbatda korxonaning tashqi makro muhiti holatini tavsiflovchi ekzogen ko'rsatkichlar qiziqish uyg'otadi. BKT konsepsiyasi mualliflari o'z ishlarida ko'rsatilgan to'rtta ko'rsatkich sohalari o'zgarmas emasligini va tizimni qurish vazifalariga qarab farq qilishi mumkinligini bir necha bor ta'kidlaganlar. Shundan kelib chiqqan holda, raqobat tahlilini o'tkazishda BKT uchun asos sifatida biz strategik boshqaruv sohasidagi mutaxassislarning mutlaq ko'pchiligi tomonidan dolzarb deb e'tirof etilgan Maykl Porterning raqobatning beshta kuchi modelini ^[8] tarkibiy tuzilma sifatida qabul qilishni taklif qilamiz.

Ushbu modelga ko'ra, belgilangan bozordagi raqobat holatini quyidagi yo'nalishlardagi ko'rsatkichlar monitoringi bilan tavsiflash mumkin:

- yangi raqobatchilarning kirib kelish tahdidi;
- mavjud tovarlar o'rnini bosuvchi mahsulotlarning paydo bo'lishi;
- mol yetkazuvchilar (postavkachilar) iqtisodiy salohiyati;
- sotib oluvchilar iqtisodiy salohiyati;
- mavjud raqobatchilar o'rtasidagi kurash.

Shunday qilib, raqobat muhiti ko'rsatkichlarini muvozanatlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi tamoyillaridan foydalangan holda baholash tizimini qurish tarmoqdagi vaziyatni operativ monitoring qilish imkonini beradi.

KSZ ishtirokchilari bo'lmish korxonaning raqobatbardoshligini baholash.

Ma'lumki, o'lchab bo'lmaydigan narsani boshqarish mumkin emas. Natijada, korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlash uning raqobatbardosh maqomining hozirgi darajasini miqdoriy baholamasdan mumkin emas. Bunday baholash, bir tomondan, biznes jarayonlarini optimallashtirishning dolzarbligini aks ettiruvchi «barometr», ikkinchi tomondan, korxonaning kuchli va zaif tomonlarini qaysi yo'nalishda aniqlash kerakligini ko'rsatadigan «kompas»dir.

Har qanday korxonaning raqobatbardoshligini oshirish uning raqobatbardoshligini baholash bilan uzviy bog'liqdir, chunki faqat bunday baholash asosida korxonaning raqobatdosh ustunliklarini (ularni mustahkamlash uchun), shuningdek kamchiliklarni (ularning keyingi faoliyatda bartaraf etish uchun) aniqlash mumkin. Ta'kidlash mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektning raqobatbardoshligini baholash uning raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini tahlil qilish va aniqlash uchun uslubiy asosdir.

KSZ ishtirokchilari bo'lmish korxonalar raqobat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Shubhasiz, faqat shunday strategiya samarali bo'lishi mumkin, uni ishlab chiqish va amalga oshirish batafsil raqobat tahliliga asoslanadi va raqobatbardoshlikni obyektiv baholash bilan tasdiqlanadi. Shunday qilib, biz ilgari taklif qilingan tahlil ketma-ketligiga rioya qilish zarurligini yana bir bor ta'kidlamoqchimiz: raqobat tahlili, korxonaning raqobatbardoshligini baholash, raqobat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, raqobat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichi korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlash algoritmda belgilovchi ahamiyatga ega, chunki aynan shu bosqichda korxona muvaffaqiyatining kaliti bo'lgan nostandart strategik qarorlar ishlab chiqiladi.

KSZlari ishtirokchilari investitsion faoliyatni samarali boshqarish sohasida investorlar bo'lmish, tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatining amaliyotida ta'sischilarning o'zaro kelishmovchiliklari tufayli bo'linib ketish holatlari ham uchraydi. Ushbu holatda empirik yo'l bilan avvalgiga qarama-qarshi holatdagi sinergetik samarani kuza-tish mumkin: umumiy xarajatlarning o'sishi, bozordagi mavqe va ulushning kamayishi, raqobatning o'sishi, ma'muriy funksiyalarning takrorlanishi va h.k.



KSZlari ishtirokchilari investitsion faoliyati yetakchisi bo'lmish innovatsion tadbirkorlikning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining investitsion o'sishini hamda modernizatsiyasini ta'minlaydi.

KSZ ishtirokchilari investitsion faoliyatini samarali boshqarish sohasida investorlar bo'lmish tadbirkorlik tuzilmalarining birlashishidan yuzaga keluvchi iqtisodiy samara tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: KSZlari ishtirokchilari investitsion faoliyatini samarali boshqarish sohasida investorlar bo'lmish tadbirkorlik tuzilmalarining birlashishidan yuzaga keluvchi iqtisodiy samara turlari va yuzaga kelish sabablari

| Iqtisodiy samara turlari | Namoyon bo'lish sohasi |
|--------------------------|--|
| Operatsion samara | Daromadlarning o'sishida va xarajatlarning, shu jumladan tranzaksion xarajatlarning kamayishida namoyon bo'ladi |
| Investitsion samara | Investitsiya resurslarining o'sishida, investitsion risklar tarkibining mukammallashtirilishida namoyon bo'ladi |
| Moliyaviy samara | Moliyaviy barqarorlikning o'sishida, kapital aylanuvchanligi ortishi va moliyalashtirish manbalariga erishish imkoniyatining mavjudligi, investitsiyalash risklarini kamaytirishda |

Bunda olinadigan samara vaqtinchalik xususiyatga ega, chunki bozorda samarali ishlab chiqaruvchi o'zi oladigan yuqori foydasi hisobiga ko'proq resurslarga ega bo'ladi va samaradorligi pastroq bo'lganlarni siqib chiqaradi. Shunday qilib, tizim o'z-o'zidan qaytadan tashkil topadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

KSZlarini barpo etishni asoslashda ularning iqtisodiy samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda, birinchi navbatda, zona hududiga joylashtiriladigan tadbirkorlik subyektlarining loyihalari samaradorligini baholash. Keyingi bosqichda zona hududini tayyorlash, unda muhandislik-kommunikatsion elementlarini, xizmat ko'rstish obyektlarini qurishga sarflangan xarajatlarni e'tiborga olgan holda zonaning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash zona faoliyatini iqtisodiy asoslashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bundan tashqari, KSZlarning ijtimoiy samaradorligini baholash va uni atrof-muhitga ekologik ta'sirini baholash ham zonalarini tashkil etilishini asoslashda muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Shuningdek, KSZlari taraqqiyotini samarali boshqarishda quyidagi tadbirlar zarurligini ta'kidlamochimiz:

- kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarishni klaster asosida tashkil etish orqali sinergetik samaraga erishish;
- kichik sanoat zonalarida kichik biznes subyektlariga umumiy xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalarni tashkil etish;
- kichik sanoat zonalaridagi tadbirkorlik subyektlari o'rtasida kooperatsiyani yo'lga qo'yish va b.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2020-yildagi PF-6019-son.
2. Yo'ldoshev N. Q., Nabokov V. I. Menejment nazariyasi. Darslik. – T., 2011. 15-b.
3. Xajiyev, B., Mamaraximov, B., & Sharipov, Q. (2020). Iqtisodiyot nazariyasi UMK.
4. Юрьева, Л. В. Основы стратегического конкурентного анализа / Л. В. Юрьева. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. – 52 с.
5. Грант, Р. М. Современный стратегический анализ [Текст] / Р. М. Грант. – СПб.: Питер, 2008. – 560 с.
6. Ружанская Л. С., Якимова Е. А., Зубакина Д. А. Стратегический менеджмент. Учебное пособие. Екатеринбург Издательство Уральского университета 2019.
7. Каплан Р. С. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию Олимп-Бизнес, 2021 г.
8. Porter M. E. On Competition. Boston: Harvard Business School, 1998.
9. Abduraxmonov Q. X., Xolmo'minov Sh.R., Xayitov A.B., Akbarov A.M. «Personalni boshqarish» (Darslik). – T.: TDIU, 2014. 294 bet.
10. Salimov B. T., Salimov B. B. Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 135 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”
jurnali

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o‘tkazilgan.